

CONTEXTUAL-PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF IMPLICATIONS IN ARTISTIC TRANSLATION

Firuzabonu Bekmurodova

PhD researcher,

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

[*bekmurodovafiruz0306@gmail.com*](mailto:bekmurodovafiruz0306@gmail.com)

Abstract: *This article investigates the contextual-pragmatic characteristics of implications in artistic translation, focusing on how implicit meanings are conveyed and interpreted across languages. It delves into the subtleties of cultural and contextual nuances that influence the translation of literary and artistic texts, highlighting the importance of pragmatics in preserving the original work's intent and aesthetic value. Through a detailed analysis of specific translation examples, the study examines strategies translators use to handle idiomatic expressions, cultural references, and unspoken implications. The research underscores the translator's role as a cultural mediator, emphasizing the need for a deep understanding of both source and target languages' pragmatic contexts. The article concludes with recommendations for translators to enhance their skills in managing implications, ensuring that the translated text resonates with its intended audience while maintaining the artistic integrity of the original.*

Keywords: *contextual-pragmatic characteristics, implications, artistic translation, implicit meanings, interpreted across languages*

BADIIY TARJIMADA IMPLIKATURALARNING KONTEKSTUAL -PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Firuzabonu Bekmurodova

Tadqiqotchi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

[*bekmurodovafiruz0306@gmail.com*](mailto:bekmurodovafiruz0306@gmail.com)

Annotatsiya: *Ushbu maqola badiiy tarjimadagi ta'sirlarning kontekstual-pragmatik xususiyatlarini o'rganib, yashirin ma'nolarning tillar bo'ylab qanday uzatilishi va talqin qilinishiga e'tibor qaratadi. U badiiy va badiiy matnlar tarjimasiga ta'sir etuvchi madaniy va kontekstual nuanslarning nozik tomonlarini o'rganadi, asl asar mazmuni va estetik qiymatini saqlab qolishda pragmatikaning ahamiyatini ko'rsatadi. Muayyan tarjima misollarini batafsil tahlil qilish orqali tadqiqot tarjimonlar idiomatik iboralar, madaniy murojaatlar va aytilmagan ta'sirlarni boshqarish uchun foydalanadigan strategiyalarni o'rganadi. Tadqiqot tarjimonning madaniy vositachi sifatidagi rolini ta'kidlab, manba va maqsad tillarning pragmatik kontekstini chuqur tushunish zarurligini ta'kidlaydi. Maqola*

tarjimonlarga tarjima qilingan matnning asl nusxaning badiiy yaxlitligini saqlab qolgan holda mo'ljallangan auditoriya bilan rezonanslashishini ta'minlash, oqibatlarni boshqarish bo'yicha malakalarini oshirish bo'yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: kontekstual-pragmatik xususiyatlar, ta'sirlar, badiiy tarjima, yashirin ma'nolar, tillar bo'ylab talqin

Hozirgi zamon tilshunosligida inson madaniyati, mentaliteti, urf-odatlari mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan, interpretatsiya yo'nalishidagi tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, tarjima – bir xalq madaniyatini boshqa bir xalqqa yetkazuvchi ko'prik vazifasini bajaradi. Ammo, so'z milliy an'ana va qadriyatlar haqida ketar ekan, mutarjimlar bir necha emas, ko'pgina muammolarga duch kelishlari mumkin. Chunki bunda shunchaki matn yoki badiiy asar tarjimasini emas, balki bir xalq madaniyatining tarjima madaniyatidagi pragmatik xususiyatlariga e'tibor berilmog'i lozim.


Tarjima jarayonida pragmatik fakt va tamoyillarga e'tibor qaratish matndan anglashilgan ma'noning asl mohiyatini tushunishga yordam berishi va tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi. Tarjimaning pragmatik jihatlarini shu kunga qadar bir qancha olimlar tadqiq etishgan bo'lib, ba'zilar xalq og'zaki ijodi tarjimasining pragmatik xususiyatlari borasida bo'lsa, ba'zilar poetik tarjimaning pragmatik jihatlarini o'rganib, yuzaga kelgan tarjimaviy muammolarga yechim berishga harakat qilishgan. Jumladan, Yevropalik olimlardan, M.Beyker o'zining "In other words. A coursebook on Translation" [3] nomli asarida, B. Hatimning madaniyatlararo tarjima muammolariga bag'ishlangan asarida [8], Kembrij universiteti tadqiqotchisi H.Abulhassanning monografiyasi [7]da bu xususda so'z borgan. Shuningdek, B.Mariya, professor H.Kamil va A.Varkaa, I.Yuliasri, hamda olim Rafat Y.Alvazna o'z tadqiqotlarida tarjimaning pragmatik muammolari va pragmatik ekvivalentlik to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berishgan [2]. Rus tilshunosligida ham tarjimaning pragmatik jihatlari ko'pgina olimlar e'tibor markazida bo'lib, ushbu olimlar sirasiga N.Arutyunova, O.Axmanova, N.V.Karpovskaya, M.Geymning ishlarini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, tilshunos olimlarning ko'pchiligi tarjima tushunchasini "almashtirish"(replacement) tushunchasi bilan o'zaro bog'liq holda o'rganishgan. Misol uchun, Yu.Nayda va S.Tayber "tarjima manba tilning tarjima tildagi ma'nosi va uslubini iloji boricha tabiiy ravishda ekvivalent tarzda takrorlashni o'z ichiga oladi" degan fikrni ilgari surgan bo'lsa [11;12], bu borada J.Ketford [6;20], shu bilan bir qatorda, A.Mitham and R.Hyudsonlar uchun tarjima bir tildagi matnni ikkinchi tildagi ekvivalent matn bilan almashtirish orqali amalga oshiriladi deya ta'kidlashgan[10;713].

Ushbu ta'riflardan xulosa qilib aytish mumkinki, manba tilini asliyat tilga funksional yoki pragmatik tarjima qilish borasida aniq fikrlar bayon etilmagan. Ammo, Yu.Nayda o'zining keyingi ishlarida "ekvivalentlik" tushunchasini tadqiq etarkan, unda dinamik ekvivalentlik haqida o'z qarashlarini berib, tarjimaning pragmatik jihatlariga e'tiborini qaratadi.

Shubhasiz, pragmatik yondashuv har qanday matnni tushunishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan vaziyat ma'nosidan (situational meaning) foydalanadi. Pragmatikaning yana bir muhim masalasi axborotni jo'natuvchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi munosabatdir. Bu masala pragmatik yondashuv uchun juda muhimdir, chunki u muloqotga bevosita ta'sir qiladi. Ishtirokchilarning madaniy kelib chiqishi, yoshi, jinsi va boshqa ekstralingvistik jihatlar pragmatik yondashuvda inobatga olinadi. Pragmatik yondashuv matnning sintaktik va semantik doirasidan tashqariga chiqib, muloqot davomidagi so'zlovchining xohishi qabul qiluvchining xohishiga qay darajada mos kelishini taqqoslaydi (1.1-rasmga qarang).

Ushbu chizma "The Vauquois triangle for machine translation" deb nomlagan bo'lib, olim Bernard Vaukua ismi bilan bevosita bog'liq [5;105]. U ilk bora sun'iy intellekt orqali amalga oshiriladigan tarjima uchburchagini yaratgan bo'lib, S.Levinson unga 4-qism sifatida pragmatik transforni qo'shimcha qilgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, demak, pragmatik yondashuv nafaqat avtomatik tarjimada, balki tarjimaning boshqa turlarida ham eng yuqori daraja sifatida ko'rilishi mumkin.



1.1-rasm. Vaukuning mashina tarjimasi uchburchagi 1.2-rasm. Inson tarjimasi uchburchagi

Direkt transfer ya'ni to'g'ridan to'g'ri tarjimada, so'zlar morfologik jihatdan o'zgarishsiz tarjima qilinsa, sintaktik transferda gap bo'laklarining tarjimada o'zgarishi nazarda tutiladi. Semantik transfer esa, o'z navbatida, so'zlarning ma'nolariga e'tibor qaratsa, pragmatik transfer so'zlarning lug'aviy ma'nosi emas, balki uning ma'lum kontekstda qaysi ma'noda kelganligi, shu matn yozuvchisi qanday ma'noni nazarda tutganligini inobatga oladi.

Bundan ma'lum bo'ladiki, pragmatik transfer matndan anglashiladigan ma'lum bir yashirin ma'noni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Ammo, shuni ta'kidlash lozimki, o'sha davrda yaratilgan ushbu tarjima uchburchagi, implikaturalarni va presuppozitsiyalarni qamrab olmagan edi. Biz ham yuqoridagi "Vaukua uchburchagi"ga asoslangan holda, mashina tarjimasi yordamisiz, sun'iy intellekt vositalarisiz inson ongi va tafakkuri bilan tarjima quyida biz tomonimizdan taklif qilingan "Triangle of human translation" "Inson tarjimasi uchburchagi" da o'z aksini topgan deb o'ylaymiz (1.2-rasmga qarang).

Ushbu tarjima uchburchagida morfologik o'g'irish uchburchakning eng quyi va kichik qismida joylashgan bo'lib, har bir til sathiga ko'ra ketma-ketlik asosida berilgan. Shuningdek, pragmatik o'g'irish tarjimada eng keng qamrovli va

kontekstual ma'nolarni o'z ichiga olganligi sababli, eng yuqorida va eng keng qismida berishga qaror qildik. Bunda asosan Vaukuaning ucburchagidan farqli tomoni inson tafakkuri orqali butun bir e'tiborga olingan shakl va ma'no jihatlari bilan ifodalanishidadir.

Tarjima jarayonida turli til tizimiga mansub til birliklarini solishtirish bilan bir qatorda turli madaniyatlarni qiyoslash ham mavjud bo'lib, bu ham badiiy tarjima pragmatikasining eng muhim omillaridan biridir. Bunda gap ikkita tendensiya o'rtasidagi qarama-qarshilik haqida ketmoqda: ma'lumotlarni eksplisit yoki implisit tarzda bayon etish. Ushbu tendensiyalarni hisobga olish pragmatik adaptatsiyaning mohiyatini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan, quyida berilgan misolda, yozuvchining pragmatik intensiyasi implisit ya'ni yashirin tarzda berilgan bo'lib, uning tarjimada implisit yoki eksplisit tarzda berilishi tarjimonga bog'liq bo'ladi:

QOIDA

Baliq boshidan sasiydi. Ammo uni dumidan tozalaydilar. (O'. Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar, 44-bet)

Berilgan bu qisqa parcha juda katta ma'noga ega bo'lib, yozuvchi "baliq" implikaturasi orqali yuqori mansab egalarining qing'ir ishlarini – "sasimoq" metaforasi orqali berib, aslida aybsiz bo'lgan pastki qatlam insonlarining bundan aziyat chekishi "uni dumidan tozalaydilar" birikmasi orqali ifodalangan. Ushbu parchaning ingliz tilida implisit yoki ekplisit tarzda berilishi TT madaniyatining xususiyatlarini hisobga olish orqali amalga oshiriladi. Ingliz tilida ham "baliq boshidan sasiydi" maqolining ekvivalenti mavjudligi sababli, uni ingliz tiliga tarjima qilganda, implisit ma'noni qoldirish va yozuvchining pragmatik intensiyasini aynan o'quvchining idrok etishiga imkon berish, matndan anglashiladigan pragmatik ta'sirning voqelanishiga zamin yaratadi:

THE RULE

The fish stinks from the head, but it is cleaned from the tail.
(U.Hoshimov, Notes for a rainy day, P.58)

P.Kosonenning ta'kidlashicha, berilgan matnning ma'lum bir qismiga pragmatik adaptatsiya qo'llanilganda, u tarjimon tomonidan quyidagi tarjima usullaridan biri (yoki bir nechta) sifatida qo'llaniladi.

- tushirib qoldirish;
- ekspansiya (manba matni ma'lumotlarini tushuntirish);
- ekzotizm (qo'pol ekvivalentlar bilan almashtirish);
- yangilash (zamonaviy ekvivalentlar bilan almashtirish);
- yaratish (maqsadli matn faqat manba matnning eng muhim ma'lumotlarini saqlab qolinishi) [9;56].

Yuqoridagilardan tushirib qoldirish usuli "Mehrobdan chayon" asarining ingliz tiliga tarjimasida tarjimonlar tomonidan bir necha marotaba qo'llanilgan.

O'zbek tilida: *Ikki haftasiz palovni ko'rmaslar (ozodliq oshlari albatta mundan mustasno), ko'b ovqatlari ubra, tuppi, mastaba, qo'g'urma sho'rba bo'lar edi. Nigor oyimning qozoni yo'qcha, yelcha go'shtni faqat palov sharofati bilangina ko'rar edi.*

Ingliz tilida: *They ate meat only when they cooked pilaf. But Mahdum used to provide the kitchen with some vegetables like turnips, pumpkins and beetroots.*

Ushbu tarjimada qavs ichida berilgan "ozodliq oshlari albatta mundan mustasno" qismi tarjimon tomonida TTda tushirib qoldirilgan bo'lsa-da, ushbu usul tarjimaning ma'nosini aniqlashtirishga emas, balki tarjimaning pragmatik ta'sirining o'zgarishiga sabab bo'lgan.

Ekspansiya usuli ham pragmatik tarjimaning eng samarali usullaridan biri bo'lib, AT mavjud ayrim tushunchalarning TT o'quvchilari uchun tushunarliroq bo'lishini maqsad qilgan holda, ma'noni kengaytirishni ko'zda tutadi.

O'zbek tilida: *Anorbibiga o'xshash tul xotinlarning qiladigan ishlari har kimga ham ma'lum: mahallada dasturxonchilik, boylar eshigicha oqsochliq, hunarmandroq bo'lsa – kinnachilik va hokazo.*

Ingliz tilida: *Everyone knows what widows, such as Bibi Anor can do: serve as a servant at the feasts, help with household at the rich, and those who were more capable - to do enmity against the evil eye, and etc.*

Mazkur parchaning tarjimasida, pragmatik adaptatsiyaning tarkibiga kirgan ekspansiya va yangilash usullaridan foydalanilgan bo‘lib, “*dasturxonchilik*” etnografizmi arxaik xarakterga ega hisoblanib, hozirda muomalada ishlatilmaydigan so‘zlardan biri hisoblanadi. Ushbu holatda, dasturxonchilik va oqsochliq so‘zlarni umumlashtirilgan holda “*servant*” so‘zi orqali berilib so‘ngra, “*help with household at the rich*” shaklida ma’no kengaytirib berilgan. O‘zbek milliy madaniyatiga xos bo‘lgan “*kinnachilik*” ham “*to do enmity against the evil eye*” tarzida tarjima qilinib ma’no kengaytirib berilgan bo‘lishiga qaramay, tarjimada pragmatik adaptatsiyadan samarali foydalanilgan deb bo‘lmaydi. Chunki, avvalo, dasturxonchilik so‘zning zamonaviy variant “*servant*” bilan almashtirilishi “*dasturxonchilik*” etnografizmining asl ma’nosini TT matni o‘quvchisi tomonidan noto‘g‘ri talqin qilishiga olib kelishi mumkin. Buning asosiy sababi, o‘zbek madaniyatida “*dasturxonchi*” so‘zi quyidagicha izohlanadi: tar. O‘tmishda amir, xon va beklar saroyida saroy ahdlariga beriladigan ovqatlarni tayyorlatish va mehmon kutish bilan shug‘ullangan lavozimli kishi. Demak, “*servant*” so‘zi “*dasturxonchi*” so‘ziga ekvivalent bo‘lolmaydi. Aksincha, “*dasturxonchilik*” “*servant*” ya’ni xizmatkorlikdan yuqori darajada turib, xizmatkorlarni boshqarish huquqiga ega ekanligini anglatadi. Shuningdek, “*kinnachilik*”ning ekspansiya usuli orqali ma’noni kengaytirib berilganligi ijobiy hisoblansa-da, mazkur so‘zning o‘zi ham berilishi maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Tarjima jarayonida AT va TT o‘rtasidagi ekstralingvistik va boshqa jihatlar bilan bog‘liq tafovutlar pragmatik kelishmovchiliklarga olib keladi. Vaqt, makon, vazifa, madaniyat, bilim, va odatlari ana shu jihatlariga misoldir. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, badiiy tarjimaning pragmatik jihati uning asosini tashkil qiladi. Chunki manba matnda berilgan, yozuvchi ko‘zda tutgan ma’noni yetkazib bera olmaslik, ma’lum bir matnni tarjimadan ko‘zlangan maqsadga yetmaganligini anglatadi. Asliyat tilidagi barcha xususiyatlar, jumladan, iboralar, qo‘shirnoq, bosh harflarning qo‘llanilishi, metafora yoki boshqa stilistik vositalardan foydalanish, implikatura va presuppozitsiyalarning badiiy asardagi ishtiroki va h.k., barchasi muallifning pragmatik intensiyasi va undan retsiyentning oladigan

pragmatik ta'siriga bog'liqdir. Agar tarjimada bularga erisholmasa, bunday tarjima – badiiy tarjima hisoblanmaydi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Alwazna R.Y. Pragmatic Aspect of Translation: The Interpretation-Based Inference and Its Implications for Translation. Arab World English Journal for Translation & Literary Studies, 1(4). 2017. pp.39-51
2. Ana Maria B. Translation as text transfer – pragmatic implications; Hani Kamil A., Warkaa Awad Ulaiwi. Interpreting Pragmatic Meaning In Cultural Contexts//Ilkogretim Online, – Elementary Education Online, 2021., Vol 20 (Issue 2): pp. 2853-2859; Translation techniques and pragmatic equivalence in Indonesian translation of humorous utterances in the Walt Disney's Donald Duck comics. International seminar prasasti III: Current research in Linguistics. 2012;
3. Baker M. In other words. A coursebook on Translation. Routledge publishing, 2018.
4. Bell R. Translation and Translating: Theory and Practice. – London and New York: Longman, 1991. pp5-6
5. Bernard V. Structures profondes et traduction automatique//Le systeme du CETA. – Revue Roumaine de linguistique, 13 (2). 1968. pp.105–130
6. Catford J. A Linguistic Theory of Translation. – Oxford: Oxford University Press, 1965. P 20
7. Hassan B. Literary Translation: Aspect of Pragmatic Meaning. – Cambridge: Cambridge University, 2011.
8. Hatim B. Communication across Cultures: Translation Theory and Contrastive Text Linguistics. – Exeter: University of Exeter, 1990.
9. Kosonen P. Pragmatic Adaptation: Skeptics vs. Creationists. Jyväskylä: University of Jyväskylä Publishing, 2011. -P.56
10. Meetham A. R., Hudson R. A. Encyclopaedia in Linguistics, Information and Control, – Oxford: Pergamon., 1972 p.713

11. Nida E and Taber C. The Theory and Practice of Translation. – Leiden:., E.J. Brill, 1969. P 12
12. Арутюнова Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики. Новое в зарубежной лингвистике. –М.:, Прогресс – Вып. XVI: Лингвистическая прагматика. 1985. С 3-42;
13. Ахманова О.С. Прагматическая лингвистика, прагмалингвистика и лингвистическая прагматика И.М. Магидова // Вопросы языкознания. - М., 1978. №3. С. 43-48;
14. Гейм М. О переводе дословном и вольном. Прагматический подход к теории перевода //Альманах переводчика. –М.:, РГГУ, 2001.
15. Карповская Н.В. К вопросу о проблеме прагматической эквивалентности в переводе. Перевод и преподавание. Вестник РУДН, серия Лингвистика, 2011, № 4 С.98-104;